

*Chorshanbiyeva Marjona*

*Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti*

*Maxsus pedagogika va inklyuziv ta'lim fakulteti*

*Surdopedagogika yo'nalishi talabasi*

## ABDULLA AVLONIY MA'RIFATPARVAR KUYCHISI

**ANNOTATSIYA:**Avloniy hayoti va ijodining yorqin qirralarini uning yorqin asarlarining pedagogik faoliyati haqida qo'shimcha ma'lumot beriladi.

**Kalit so'zlar:** Darslik, adabiyot, gazeta, she'riyat, ilm.

Ilm mumkinmidur topmak biza rohi najot,  
Jahl ila ichmak o'lurmi xizrat obi hayot,  
Ilm arbabin to'fangidur qalam, o'qi-davot  
Basdur, avlodim, omil ilma, jaholaatdan uyot,  
Meva chiqg'aymu, qo'zim, shungu, daraxtning toolidan.  
(Abdulla Avloniy)

Barkamol va har tomonlama salohiyatli yoshlarni tarbiyalash masalasi har bir ijodkor asarlarining bosh g'oyasi sanaladi. Bolaning shaxs sifatida voyaga etishi eng birinchi oilaga borib taqaladi. U asosan oila muhitida tarbiyalanib, inson sifatida shakllanadi. Tarbiya esa hayotning eng muhim tayanchi sanaladi. Har bir yoshni shunday tarbiyalash zarurki, toki u yaxshi o'qishi bilan eng yuksak pog'onaga ko'tarilsin. Odob-axloq, tarbiya tushunchalarini o'z asarlarining asosiy poydevori sifatida ilgari surgan, o'zbek dramaturgiyasi va teatrining yangicha maorifi va matbuotining asoschilaridan sanalmish Addulla Avloniy 1878-1934 yillarda yashab ijod etgan. Arab va fors tillarini yoshlikdagi mustaqil mutolaa vaqtida egallagan. Hijron taxallusi bilan she'rlar bitgan. Avloniy matbuot ishlarida faol ishtirok etish bilan birga "Adabiyot yoxud milliy she'rlar" hamda "Birinchi muallim", "Turkiy guliston yoxud axloq", "Ikkinchi muallim" kabi darslik va o'qish kitoblarini yaratgan. Adibning "Ikkinchi muallim" kitobi "Birinchi muallim" kitobining uzviy davomidir. Mazkur kitob maktabni olqishlovchi she'r bilan boshlanadi. Ijodkor o'z she'rida maktabning ulug' dargoh ekanligiga urg'u beradi: Maktab sizni inson qilur, Maktab hayot ehson qilur Maktab g'ami vayron qilur G'ayrat qilib o'qing o'g'lon! Maktabdatur ilm-u kamol Maktabdatur husnu hilol Maktabdatur milliy xayol G'ayrat qilib o'qing, o'g'lon! Shoir bu misralar orqali maktabni insonning najotkori, kishilarni komillik va kamolot sari etaklovchi kuch sifatida talqin qiladi. Jumladan, shoirning "Ikkinchi muallim" dagi "Maktabga da'vat" she'rida ham muallif bevosita yosh kitobxonga murojaat qilib yozadi: Boqdi Gunash panjaradan bizlara, Yotma deyr barcha o'g'il qizlara. Nolayi faryod qilib barcha qush:

Maktabingiz vaqti,-deyr sizlara.  
Boshladi har kirm o'z ishin ishlara,  
Sizda turing, maktabingiz izlara.

Shoirning "Ikkinchi muallim" dagi "Maktab" she'rida ham yosh kitobxonlar - maktab o'quvchilariga murojaati seziladi:

Maktab uyi-dorul-omon,  
Maktab hayoti jovidon,

Maktab safoyi qalbi jon,  
G'ayrat qilib o'qing, o'g'lon!

She'ra maktab tinchlik, omonlik uyi, hayot manbai, qalblarga yaxshilik, ravshanlik keltiruvchi joy sifatida tasvirlanishi bilan birga, u axloq-odob uyi, Allohning ehsoni va bir ajib gulshan sifatida talqin etiladi. Abdulla Avloniy bolalarga samimiy fikrlarini o'ynoqi satrlarda tasvirlash bilan birga, Vatan va uning qismati bilan bog'liq jiddiy mulohazalarni-da bayon etadi. Jumladan, "Vatan" nomli she'rida ona-yurtning noz-ne'matlari, boyligi ta'rif- tavsif etiladi. Shu bilan birga, onaday aziz, mushfiq go'sha haqidagi qayg'uli nola yangraydi: Chunki bola tarbiyasida vatanparvarlik g'oyalari muhim o'rin tutadi. Ijodkor vatanni onaga qiyoslaydi. O'z onasini ardoqlagan, uni himoya qila olgan bolagina vatanini ham yovuz kuchlardan himoya qila oladi degan fikrni ilgari suradi. Onamizsan! Bizning mushfiq onamizsan! Javlon urib yashaydurgon xonamizsan! Seni sotmoq mumkinmidur, o'zing o'yla, Tiling bo'lsa, hasratlaring tuzuk so'yla. Sotib-sotib qoladurmiz g'amga botib, Boyqush kabi vayronada yotib-yotib Shoir o'tmishda ma'rifat gulshani bo'lgan yurtimizning jaholat botqog'iga botganidan afsuslar chekib, vatanimiz tobora vayronaga aylanayotgani, ilm-ma'rifatga oshno qalblargina bunday balodan qutulishini ta'kidlaydi. Shu ma'noda shoirning "Ilmgaga targ'ib", "Jaholat", "Istiqboldan orzularim", "Millatga salom" she'rlari millat farzandlariga xitob tarzida bitilgan.

Muallif ijodida vatan va millat dardini anglash yuksak darajada ta'riflangan.

Ayo ey sohibi urfon. Vatan bog'inda faryod et,  
Otib tashla aroding eski odatlarni barbod et.  
Maorif-la funun tahsilina qil rahnamolig' san,  
Qorong'uda qolan millatni nuri ilma irshod et.  
Vatan mehri agar bo'lsa-dilingda ishq savdosi,  
Oltin nuri maorifga o'zingni misli Faryod et..

Avloniy erk va ozodlikni har narsadan baland tutarkan, unga olib boradigan birdan-bir yo'l deb ilm-ma'rifatni bildi. Shu sabab Vatanni xalqi uchun zarracha manfaat etkazishni o'ylagan kishini ma'rifatga da'vat etdi. Ma'rifatchilik va ijtimoiy mavzu Avloniy she'riyatida markaziy o'rinni egallaydi. Shoir ilm-fanning fazilatlarini zavq-u shavq bilan kuylaydi. "Maktab", "Maorif", "ilm", "fan", kabi tushunchalar shoir she'rlarida ezgulikning ramzi, obrazi darajasiga ko'tariladi. She'rlarning ahamiyati millat, jamiyat tarbiyasida bemisldir. Uni amalga oshirish asosan ziyolilar, birinchi navbatda, olim-u muallimlar, shoir-u san'atkorlar zimmasidadir. Agar millat haq-huquqini yo'qotgan, asriy ilm-u ma'rifatdan uzoqlashtirilgan, o'zligini unitayozgan bir holatga tushib, jamiyat ma'naviyatidan mahrum darajaga etgan bo'lsa, ziyoli zimmasidagi ish og'irroqdir. Abdulla Avloniyning "Adabiyot" nomli she'riy to'plami quyidagi satrlar bilan boshlangan.

Qalamim qorasidur, ogoh dostonimdan,  
Xazin qayg'um eshiting u tarjimonimdan.

Avloniy she'rlarini o'qir ekansiz, ko'z oldingizda XX asr boshidagi Turkiston manzaralari gavdalanadi. Shoir unga yuksakdan, dunyo xalqlari hayotida yuz berayotgan o'zgarishlar, Yevropadagi taraqqiyot nuqtai nazaridan razm soladi. Avloniy 1912-yilda bosilib, chiqqan she'rlaridan birini "Dunyo fojeasidan" deb nomlagan edi. Shoir unda insonlar dunyosinida insoncha hayot yo'qligini qalamga olgan. Avloniy hokimlar va tobelar "kuchlilar" hamda "kuchsizlar" o'rtasidagi munosabatlarga e'tibor bergan. Shoir she'rlarida insonlar o'rtasidagi mehr-muhabbat, do'stlik qaror toptirishiga adolat va haqiqat tantana qilishiga yorug' kunlar kelishiga ishonch bildiradi. Bundan tashqari shoir shariyatining bosh yo'nalishini millatga milliy ongini shakllantirishni tashkil etadi. Buning uchun u Turkiston turmushini boshqa xalqlar hayoti bilan qiyoslab ko'rsatadi. Adabiyot shu yillarda xalq hayoti bilan yaqinlashdi,

yanada xalqchil ommabop bo'ldi. Avloniyning "Oila munozarasi", "Shoir ila to'ti" she'rlarini misol keltiriladi. Abdulla Avloniy tatar, ozarbayjon, usmonli qardoshlari bilan yaqindan aloqa bog'lagan. Ulardan ko'p narsalar o'rgangan, o'rgatgan. Bu o'zaro hamkorlik ijodi va faoliyatida yorqin izlar qoldirgan. Shoir mashhur ozarbayjon kuychisi, Muhammad Xodidan, ilhom olib, unga naziralar bitadi. Avloniy she'rlari orasida engil mutoyiba mavjud. Avloniyning 10-yillarda yozgan "Pinak", "Advakatlik osonmi" dramatik asarlari vujudga kelgan. "Advakatlik osonmi" asarining mazmuni quyidagicha: Davronbek, Rossiyada eti yil o'qiydi va Turkistonga advakat bo'lib qaytadi. Lekin shu o'tgan vaqt ichida uning turmushida biror o'zgarish bo'lmagan. Xalq hali ham ilm-u ma'rifatdan yiroq, fuqorolik qoidalari, davlat qoidalari, davlat qonunlari, huquqiy tartiblardan bexabar qolingan. Avvalo, shuni aytish kerakki, shoir, garchi odamlar munosabatida yovvoyi, tabiatning shavqatsiz qonunlariga xos xususiyatlar ko'rsa-da ularning bir kunmas bir kun mehr-u, muhabbatga, aylanishiga, Turkistonning esa ozod va obod bo'lishiga astoydil ishonadi. Adibning she'rlarini yosh avlodga biz ma'rifatparvar bobolarimizning muqaddas orzularini ro'yobga chiqarish uchun mamlakatimizda yangi Renessans poydevorini yaratishni strategik vazifa qilib belgilaganmiz. Shu maqsadda ilm-fan, ta'lim-tarbiya, madaniyat sohalarida tub islohotlarni amalga oshirmoqdamiz. Ushbu maqola o'zbek adabiyotining buyuk allomasi - Avloniy hayoti va ijodining yorqin qirralarini, uning pedagogik faoliyatini, adabiyotga qo'shgan hissasini kengroq ochib berishga yordam beradi. Shu bilan birga, maktab darsligida mavjud bo'lmagan qimmatli ma'lumotlarni o'z ichiga oladi. Shu uchun bu maqola ahamiyatli hisoblanadi.

#### Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Barakaev R. "A. Avloniy va bolalar adabiyoti". T: Fan, 2004.
2. "Bolalar adabiyoti va zamonaviylik". T: Fan 1981.
3. Abdulla Avloniy "Tanlangan asarlari"
4. Abdulla Avloniy "Turkiy Guliston yoxud axloq" asari